FANIMIZ ZAHMATKASHLARI

Sardor Xodjaniyozov (Urganch davlat universiteti rektori v.v.b., p.f.d., professor)

IQTISODIY, IJTIMOIY VA AMALIYOT SOHALARIDA O‘Z MAKTABINI SHAKLLANTIRGAN USTOZ

Hozirgi davrga kelib, UrDU professori, oliy va o‘rta maxsus ta’lim fidoyisi Tangribergan Do‘stjonovni mamlakatimizning turli hududlarida taniqli olim, mohir tadqiqotchi, tajribali rahbar sifatida yaqindan biladigan va hurmat qiladiganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ustoz iqtisodiyot fani va u bilan uzviy bog‘liq bir qator noiqtisodiy yo‘nalishlarda hamda ular bilan bevosita bog‘liq boshqaruv sohalaridagi izlanishlari bilan ham keng tanilgan. Biz ushbu sohalar bo‘yicha bir qator nazariy va amaliy masalalar yechimini topishda, ko‘plab shogirdlar va izdoshlar tayyorlab viloyatda o‘z maktabini shakllantirgan, universitetimizda ko‘p yillardan beri ilmiy-pedagogik faoliyatini olib borayotgan serqirra inson deb bilamiz.

Bu yil ustoz professor Tangribergan Do‘stjonov o‘z tavalludining 75 yilligi va ilmiy-pedagogik faoliyatining 55 yilligini, UrDUdagi uzluksiz ish davrining ham 33 yilligini nishonlaydilar. Ular 1971-yil avgustida O‘zRFAIIda katta laborant sifatida mehnat faoliyatini va shu yili sentabridan esa sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi Markaziy iqtisod-matematika institutida tadqiqotchi-izlanuvchi, aspirant sifatida ilmiy faoliyatini boshlagan.

1977-yili ushbu nufuzli ilmiy dargohda nomzodlik dissertatsiyasini “Iqtisodiyot va uning tarmoqlarida rejalashtirish, iqtisod va boshqarishda iqtisodiy matematik modellarni va elektron hisoblash vositalarini qo‘llash” mutaxassisligidan “Qishloq xo‘jaligini ximizatsiyalashtirishdan atrof-muhitni zararlanishini hisobga olgan holda rejalashtirish muammolari (O‘zbekiston misolida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvafaqiyatli himoya qildi. Oradan ko‘p o‘tmay, OAKning ushbu shifri bo‘yicha katta ilmiy xodim unvoniga ham musharraf bo‘ldi. Bu davrda iqtisodiyot va uning ustuvor tarmoqlarining dolzarb yo‘nalishlariga oid qator monografiya, risola va ilmiy maqolalar chop qildi, shu bilan birga, o‘rindoshlik asosida pedagogik faolyatini ham olib bordi.

1977-yildan o‘zining ilmiy tadqiqotlari faoliyatini yana O‘zRFAIIda davom qildirdi. 1977–1992-yillar davomida bu ilm maskanida katta, yetakchi va bosh ilmiy xodim lavozimlarida samarali faoliyat yuritdi. Shuningdek, bu davrda institut yosh olimlari kengashiga rahbarlik, dargoh ilmiy kengashi va ixtisoslashgan ilmiy kengash a’zosi sifatida ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy jamoatchilik faoliyatini samarali olib borishga erishdi. Jumladan, shu davrda sobiq ittifoq miqyosidagi fundamental ilmiy-amaliy tadqiqot, “O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligi “Paxta” kompleksini shakllantirish va rivojlantirish” loyihasining faol ijrochilaridan bo‘ldi. 1990-yil bu tadqiqot doirasida o‘zining “O‘zbekiston Respublikasi ASKda kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish va qo‘llanilishining iqtisodiy-ekologik muammolari (O‘zbekiston misolida)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqqiyatli himoya qildi, 1,5 yildan keyin professorlik unvoniga ham erishdi. 1979-yilda O‘zbekiston va 1980-yilda esa sobiq ittifoq yosh olimlar ko‘rik-tanlovlarida qatnashib, g‘olib bo‘ldi, diplomlar bilan taqdirlandi.

Shuningdek, iqtisodiyot, iqtisodiy-matematika, iqtisodiy ekologiya, ijtimoiy sohalarga oid monografiyalar, risolalarni chop qilish bilan birga, bir qator nufuzli xalqaro, respublika anjumanlarida ma’ruzalar bilan chiqdi hamda ilmiy tadqiqot loyihalarida tashkilotchi va ijrochi sifatida faoliyat olib bordi va bir muddat xalq deputatlari viloyat Kengashiga ham saylandi.

1992-yildan professor Tangribergan Do‘stjonov mustaqilligimiz sharofati va davr talabi bilan o‘z mehnat faoliyatini Xorazm viloyati hokimligida va o‘z ilmiy-pedagogik ishlarini o‘rindoshlik asosida UrDUda boshladi. Hokimiyatda oldin umumiqtisodiy, keyinchalik, umumijtimoiy majmualarga rahbarlik qilgan ustoz har bir muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tahlil qilishda va yechimini izlashda universitetimiz olimlari bilan muhokama qilishni va fikr-takliflarini o‘rganib, viloyatning dastur va chora-tadbirlarini ishlab chiqarish amaliyotlarini yo‘lga qo‘ydi. Men o‘sha davrda universitetimizda yosh tadqiqotchi va ijrochi sifatida bu muhim tadbirlarda

qatnashganman hamda domla bilan hamkorlik ishlarimizni boshlaganman. Shuningdek, ustozning ham hokimiyatdagi amaliy, ham universitetdagi ilmiy-pedagogik faoliyatlari uyg‘unligi bilan bunday hamkorlik ishlari yanada mustahkamlanib bordi. Shu o‘rinda domlaning biz bilgan yana bir tashkilotchilik faoliyatini aytib o‘tishni lozim, deb o‘ylayman. 1997-yilda tashkil qilingan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Xorazm bo‘limi – Ma’mun akademiyasini qisqa muddatda shakllantirishni va faoliyatini boshlashda mas’ul ijrochi bo‘lgan hokim o‘rinbosarining xizmatlari katta bo‘ldi desam, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

Rektorimiz akademik A.Sadullayev bilan ilmiy salohiyati yuqori bo‘lgan domlalar va talentli yoshlar bilan hokimiyatda va universitetda alohida suhbatlar o‘tkazib, ularning ko‘pchiligini o‘sha dastlabki davrda to‘liq yoki o‘rindoshlik asosida sharoit yaratib, akademiyada ishlashga jalb qilganlaridan juda yaxshi xabardorman. Akademiyaning mana shunday salohiyatli, ilmiy xodimlar bilan ta’minlash, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, ilmiy-tashkiliy faoliyatini shakllantirish bilan bir qatorda, yangi xodimlarni uy-joy bilan ta’minlash maqsadida Xiva shahrida 32 xonadonli maxsus uy qurish, shuningdek, akademiyada dolzarb mavzular bo‘yicha ilmiy anjumanlar o‘tkazishda bosh-qosh bo‘lganligini guvohi ham bo‘lganman.

Professor T.Doschanovning 350 ga yaqin ilmiy ishlari, shu jumladan, 20 dan ortiq monografiya, risola, darslik o‘quv qo‘llanma va ilmiy maqolalari nufuzli nashriyotlarda va xorijda chop qilingan hamda 15 dan ortiq shogirdlari nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilib, ularning o‘zlari ham ko‘plab izdoshlarini tayyorlamoqda. Natijada domla rahbarligidagi ilmiy maktab shakllantirildi va muvafaqqiyatli kengaytirilmoqda.

Men O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim fidoyisi ustoz Tangribergan Do‘stjonovni universitetimiz jamoasi nomidan qutlug‘ yoshlari munosabati bilan tabriklayman, ularga salomatlik va uzoq umr tilash bilan har doim el-yurtimiz, shogirdlari va farzandlari ardog‘ida bo‘lib yurishlarini tilayman.